

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

NUTQ USTIDA ISHLASH JARAYONIDA O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Mamatova Gulshan Amankulovna¹
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti dotsenti
Umarova Dildoraxon Ahmadjon qizi²
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistri

Annotatsiya: Maqolada fikr ifodasi uchun nutqning emotsional ta'sirchanligi uchun, birinchi navbatda, leksik birliklar va ular vositasida o'quvchi nutqini boyitish zarur ekanligi, nutq o'stirish masalasi va ona tili ta'limi samaradorligini oshirishning omili sifatida e'tirof etilayotgan ilg'or o'qitish usullari hamda mashqlar tizimini ishlab chiqish, shu bilan bir qatorda nutqning mazmundorligi, nutq tuzilishi va mantiqiyliigi, ketma-ketligi, nutqning ifodaliligi va nutq ravonligi haqida gap yuritiladi.

Kalit so'zlar: leksik birliklar, nutq o'stirish, ona tili ta'limi samaradorligi, ilg'or o'qitish usullari, nutqning mazmundorligi, nutq tuzilishi, nutq mantiqiyliigi, nutqning ifodaliligi, nutq ravonligi.

ФОРМИРОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ РАБОТЫ НАД РЕЧЬЮ

Аннотация: В статье отмечается, что для выражения мысли, эмоциональной выразительности речи необходимо, прежде всего, обогащение речи учащегося лексическими единицами и их средствами, рассматривается вопрос о развитии речи и выработке прогрессивных методов обучения и системы упражнений, которые признаются фактором повышения эффективности обучения родному языку, в том числе по содержательности речи, структуре и логике речи, последовательности и последовательности. Говорят о последовательности, выразительности речи и беглости речи.

Ключевые слова: лексические единицы, развитие речи, эффективность обучения родному языку, передовые методы обучения, содержательность речи, структура речи, логичность речи, выразительность речи, беглость речи.

FORMATION OF STUDENTS' SPEECH CULTURE IN THE PROCESS OF WORKING ON SPEECH

Abstract: The article talks about advanced teaching methods and exercise system, which are recognized as a factor for the expression of thought, for the emotional effectiveness of Speech, First of all, the need for lexical units and enrichment of the student's speech through them, the issue of speech culture and the improvement of the effectiveness of native language education, as well as the.

Keywords: lexical units, speech culture, efficiency of native language education, advanced teaching methods, speech content, speech structure, speech Logic, speech expressiveness, speech fluency.

KIRISH. Nutq ustida ishlash jarayonida talabalarining o‘quv-metodik faoliyatining asosiy yo‘nalishi nutq madaniyatini shakllantirishdir. Bu ona tilini amaliy, muntazam va izchil, namunalar va maxsus mashqlar asosida, nutqiy xatolarning oldini olish va ularni to‘g‘rilash, adabiy-badiiy nutq shaklini o‘rgatish orqali amalga oshiriladi. Talabalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ona tili o‘quv dasturidagi mavzularning puxta o‘zlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o‘z fikrini ilgari surish, uni dalillash, umumlashtirish va xulosalashga o‘rgatadigan, talabalarda til materialidan foydalanishga qiziqish uyg‘otadigan, unda til xususiyatlaridan amalda foydalanish ehtiyojini yuzaga keltiradigan, ona tili ta’limi samaradorligini oshirishning omili sifatida e’tirof etilayotgan ilg‘or o‘qitish usullari va mashqlar tizimini ishlab chiqish davr talabidir [5; 81b.] Bu talabdan kelib chiqib, ona tili ta’limida quyidagi vazifalar hal qilinishi nazarda tutiladi:

- ta’lim jarayonini tashkil etuvchi talaba va o‘qituvchi shaxsiga o‘quv faoliyati subyektlari sifatida yondashuv;
- o‘qituvchi va talabning ta’lim jarayoniga ijodiy yondashuvini ta’minlash;
- o‘qituvchilarda ona tili o‘qitishning takomillashtirilgan an’anaviy va noan’anaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarni o‘stirib borish;
- ona tili darslari loyihasining har bir bosqichiga til birliklari ustida ishlashni singdirish;
- talabalarning tilni amaliy o‘zlashtirishlari uchun leksik-grammatik mashqlar to‘plamini bajarish usullarini takomillashtirish;
- talabalar faoliyatini, o‘zlashtirish darajasini doimiy o‘rganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralari belgilay olishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI. V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Ye.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida o‘quvchilar ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo‘lgan bosqich muhim rol o‘ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlamining assotsiatsiya asosida bog‘lanishining

ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir».

XIX asming o‘rtalaridan boshlab, nutq ontogenezi olimlari qiziqtirib qoldi. K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o‘qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o‘qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o‘zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o‘zaro munosabatlarini falsafiy jihatdan chuqur anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o‘z fikrlarini bildirdi. Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan. Natijada bolalar nutqining paydo bo‘lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro‘y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi. Bunda bola kattalarning nutq namunalarini sust ravishda qabul qilib olmaydi, balki u nutqni umuminsoniy tajribaning bir qismi sifatida faol o‘zlashtiradi.

N.Mahmudov aytganidek, “Nutqning ta’sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay, “yuqumli” tarzda yetkazish imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo‘lmish so‘z boyligiga bog‘liq. Nutqning qay darajada foydalanganlik bilan belgilanadi. ... Buning uchun esa nutq tuzuvchida til vositalarining boy va faol zahirasi mavjud bo‘lishi kerak”. Fikr ifodasi uchun, nutqning emotsional ta’sirchanligi uchun, birinchi navbatda, leksik birliklar va ular vositasida o‘quvchi nutqini boyitish zarur [3; 74 b.]

Nutq o‘stirish masalasi keng o‘rganilgan muammolardan bo‘lib, shu bo‘yicha fundamental tadqiqot olib borgan T.A.Ladijenskayaning yozishicha, til materiali ahamiyatli bo‘lishi lozim (ijtimoiy ahamiyatli yoki shaxsiy ahamiyatli), chunki bu ham o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda zaruriy shartlardan biridir [4; 94 b.] Shuningdek, teskari bog‘liqlik ham mavjud: til boyligi qanchalik to‘liq o‘zlashtirilsa, odam tabiat va jamiyatdagi murakkab aloqalarni shunchalik oson anglay oladi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Nutq va tilning ahamiyati. Bola hayotining barcha ko‘rinishlarida til rivojlanishining ahamiyatini oshirish mushkul. Hayotiy qobiliyat kaliti sifatida aloqa va tilning asosiy roli haqida ishonchli dalillar keltirish mumkin. Rasmiy ta’lim va maktab hayotining dastlabki yillarida ta’sirli verbal va noverbal aloqaga asoslangan til mahorati o‘fganish va rivojlanishga zamin bo‘lgan. Til va boshqa muhim qobiliyatlarning o‘sishi o‘qishga tayyorgarlik, savodxonlik va hisob-kitobni o‘z ichiga olgan.

Birinchi talab – nutqning mazmundorligi. O‘zingiz yaxshi bilgan narsa haqidagina gapira va yoza olasiz. Faqat shunda talaba hikoyasi o‘zi va boshqalar uchun yaxshi, qiziqarli va foydali bo‘ladi. Buning uchun nutq dalillarini bilishga va kuzatishlarga asoslangan bo‘lishi, u orqali puxta o‘ylangan fikrlar, samimiy kechinmalar yetkazilishi lozim.

Ikkinchi talab – nutq tuzilishi mantiqiyligi, ketma-ketligi va aniqligiga qo‘yiladigan talab sanaladi. Talaba nima haqida gapirishi va yozishini yaxshi bilsa, bu qandaydir jiddiy narsani tushirib qoldirmaslikka, bir qismni boshqasiga mantiqan bog‘lay olishiga, ayni bir narsani bir

necha marta takrorlamasligiga yordam beradi. To‘g‘ri nutq xulosalar asoslab berilishini (agar ular bor bo‘lsa), nafaqat fikr bildirishni boshlash, balki yakunlay olish mahoratini ham taqozo etadi. Ushbu dastlabki ikki talab nutqning mazmuni va tuzilishiga taalluqli sanaladi. Keyingi talablar esa og‘zaki xabarlar va yozma bayonlarning nutqiy rasmiylashtirilishga oid (masalan: og‘zaki bayonotlar).

Nutq ifodali bo‘lgandagina talaba tinglovchilarga lozim darajada kuchli ta‘sir qila oladi. Nutqning ifodaliligi – bu fikrni yorqin, ishonarli va lo‘nda yetkazish mahorati, bu odamlarga ohang, dalillarni saralash, iboralar keltirish, so‘zlarni tanlash orqali ta‘sir qilish qobiliyatidir.

Nutq ravonligi – bu uni eshitgan odam uchun tushunarli bo‘lishidir. Nutqning talaffuz jihati ham favqulodda muhim: yaxshi ohang, harflarni aniq talaffuz etish, to‘g‘ri talaffuz qoidalariga rioya etish – adabiy tilning talaffuz me‘yorlaridan chetga chiqmaslik, ifodali gapirish (yoki o‘qish), ta‘kid, pauza yoki mantiqiy urg‘uni kerakli paytda qo‘llash kabilar.

XULOSA. Nutqning ifodaliligi ham, ravshanligi ham uning sof bo‘lishi, ya‘ni, ortiqcha so‘zlardan, oddiy so‘zlashuv tiliga xos qo‘pol so‘z va iboralardan qochishni taqozo etadi. Nutqni rivojlantirish predmeti ba‘zan noo‘rin kengaytirilib, bu sohaga to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi ham kiritiladi.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi.

- Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi.
- O‘quvchilar sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta‘minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta‘lim olishga tayyorlaydi.
- O‘quvchilar eshitadigan, ma‘nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo‘llaydigan so‘zlarni asta-sekin tevarakatrof bilan tanishish jarayonida ota-onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o‘zining uncha ko‘p bo‘lmagan so‘z zaxirasiga tayanib bilib oladi.
- «Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o‘zini va uni boshqarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishlari zarur

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aytbayev D.T. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (Ijtsrd) International Science journal. Wydawnictwo Naukowe "Science". Polsha. 2021-yil;
2. Shodiyeva M.J. Boshlag‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimi-ning o‘quv-metodik ta‘minotini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi, – Toshkent, 2019. 135 - bet;
3. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati.– Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – B. 74;
4. Ладыженская Т.А. Методика развития речи. – Книга для учителя. – 2-е изд., испр. И доп. – Москва: Просвещение, 1991. – 94 с.;
5. G‘aniyev T.T. Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish. Ped. fan. nom.diss. –T.: 1991. B. – 81 b.